



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABANING KASBIY KOMPETENSIYASINI INGLIZ TILI DARSLARIDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANITIRISHNING AHAMIYATI

Tursunboyeva Muxlisa Anvar qizi
Farg'ona davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya.

Zamonaviy talablarga binoan ingliz tilini bilish talabalar uchun faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki kasbiy faoliyatda ham muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda fanlararo yondashuvning zarurligi va uning o'quv jarayoniga ta'siri juda muhim ekanligi ko'plab tadqiqotlarda o'rganib chiqilmoqda. Ushbu maqolada ham oliy ta'tabiiy fanlar fakulteti talabalarining ingliz tili o'qitishda kasbiy kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish muammolariga qaratilgan. Unda ushbu masala yuzasidan topilishi kerak bo'lgan yechimlar, bir qator takliflar misollari bilan keltirib o'tilgan. Shu bilan birgalikda, qator tadqiqodchilar fikrlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetensiya, tabiiy fanlar, nofilologik yo'nalish, integratsiya, kimyoviy terminlar, kasbiy ko'nikma .

ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Турсунбоева Мухлиса Анвар кизи
Ассистент Ферганского государственного технического университета

Аннотация.

В соответствии с современными требованиями знание английского языка является для студентов не только средством общения, но и важным в профессиональной деятельности. Необходимость междисциплинарного подхода к преподаванию английского языка в системе высшего образования и его влияние на образовательный процесс исследуются во многих исследованиях. В данной статье также рассматриваются проблемы развития профессиональных компетенций студентов факультета естественных наук в преподавании английского языка на основе интегративного подхода. В нем приводятся решения, которые необходимо найти по данному вопросу, с примерами ряда предложений. Вместе с тем были изучены мнения ряда исследователей.

Ключевые слова: компетентность, компетентность, профессиональная компетентность, естественные науки, нефилологическая ориентация, интеграция, химические термины, профессиональные навыки.

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES

Tursunboyeva Mukhlisa Anvar kizi
Assistant of Fergana state technical university

Annotation.

In accordance with modern requirements, knowledge of English is not only a means of communication for students, but also important in their professional activities. The need for

an interdisciplinary approach to teaching English in higher education and its impact on the educational process are explored in many studies. This article also examines the problems of developing the professional competencies of students of the Faculty of Natural Sciences in teaching English based on an integrative approach. It provides solutions that need to be found on this issue, with examples of a number of proposals. At the same time, the opinions of a number of researchers were studied.

Keywords: competence, competence, professional competence, natural sciences, non-philological orientation, integration, chemical terms, professional skills.

Globalizatsiya va zamonaviy talablarga binoan ingliz tilini bilish talabalar uchun faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki kasbiy faoliyatda ham muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda fanlararo yondoshuvning zarurligi va uning o'quv jarayoniga ta'siri juda muhim ekanligi ko'plab tadqiqotlarda o'rganib chiqilmoqda. Kasbiy ingliz tilini o'qitishning asosiy maqsadi nafaqat tilni o'rgatish, balki talabalarga ularning kasbiy sohalarida zarur bo'lgan terminologiyani, muloqot uslublarini va ish jarayonlari bilan bog'liq ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Fanlararo munosabatlar o'qitish jarayonida bir nechta fan sohaları o'rtasidagi integratsiya va o'zaro aloqalarni ifodalaydi. Bu usulda o'qituvchi, tilni faqat yakkama-yakka, alohida fan sifatida emas, balki boshqa fanlar, masalan, iqtisodiyot, huquq, tibbiyot va boshqa kasbiy sohalar bilan birgalikda o'rgatadi.

Oliy ta'lim muassasalarining nofilologik yo'nalishlarida ingliz tilini o'rganish nafaqat til bilimlarini, balki turli sohalarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishni ham ta'minlaydi. Tabiiy fanlar fakultetlari misolida ko'radigan bo'lsak, ta'lim olayotgan talabalar uchun ingliz tilini o'rganish, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini va kasbiy sohada muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Integrativ yondashuv — bu turli fanlar va tilni birlashtirish metodi bo'lib, talabalar uchun ko'p jihatdan sharoitlar yaratadi. Ayniqsa, talabaning kasbiy kompetensiyasini ingliz tili darslarida integrativ yondashuv asosida takomillashtirish uning kelgusida nafaqat o'z kasbi balkim ingliz tilini mukammal bilish imkonini beradi.

Kasbiy ingliz tili o'qitish jarayonida fanlararo munosabatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda globalizatsiya va texnologiyalarning tez rivojlanishi, shuningdek, mehnat bozoridagi talablarning o'zgarishi kasbiy ingliz tiliga bo'lgan ehtiyojni oshirgan. Talabalarga faqatgina ingliz tilini o'rgatish emas, balki ularning kasbiy sohada ingliz tilida erkin muloqot qilish imkoniyatini yaratish muhimdir.

Zamonaviy tendensiyalar va hayotga yangi qarashlar nofilologik o'quv yurtlarda, xususan tabiiy fanlar fakultetida malakaviy chet tili o'qituvchilariga ma'lum talablarni qo'ydi. Ko'pgina olimlar aniq bir fan bilimlarining boshqa fanlar bilan o'rganishda foydalanishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida g'oyalarni ilgari surdilar, chunki fanlarning integratsiyasi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda zamonaviy pedagogik o'quv jarayonda fanlararo aloqalarni rivojlantirish muammosi keng muhokama qilinmoqda. N.A.Menchinskaya, E.I. Monoszon, V. N. Maksimova, N. A. Churilin, N. A. Sorokin va V. N. Fedorova kabi ko'plab tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, integrativ yondashuv ya'ni fanlararo aloqalarning beshta asosiy – uslubiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy va funksional funksiyalarga ajratib olish odatiy holdir. Agar fanlararo aloqalarning uslubiy funksiyasi bo'lsa talabalarga bilimga tizimli yondashuv nuqtai nazaridan zamonaviy fan tushunchalarini yaxshiroq o'zlashtirishga, fanlararo aloqalarning tarbiyaviy funksiyasi jihatidan muvofiqlik, chuqurlik, xabardorlik va moslashuvchanlik fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi [1].

Rus olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, ingliz tili darslarida integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish texnologiyasi talabalarni nafaqat til ko'nikmalarini, balki ilmiy va kasbiy bilimlarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu

yondashuv orqali talabalar o'z kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, integrativ metodlar talabalarni ilmiy fikrlashga, muloqotga va kasbiy faoliyatda to'g'ri qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi.

G.G. Belovanning so'zlariga ko'ra: "Interaktiv metodlar talabalarga o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkonini beradi, bu esa ularning kasbiy kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi". Uning fikricha, interaktiv metodlar talabalar o'rtasida o'zaro muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa kasbiy vazifalarni samarali bajarishga tayyorlaydi. Shuningdek, interaktiv metodlar talabalarni turli kasbiy vazifalarni hal qilishda va ingliz tilida ilmiy materiallarni sintez qilishda faol ishtirok etishga undaydi [2].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Talabaning kasbiy kompetensiyasini oshirishni tahlil qilishdan oldin kompetensiya va kasbiy kompetensiya o'zi nima ekanligini yoritib berish joiz.

Kompetentsiya – bu shaxsning turli vaziyatlarda, shu jumladan, yangi sharoitlarda harakat qila olishiga yordam beradigan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar hamda shaxsning o'ziga xos fazilatlari yig'indisidir. [3]

Kasbiy kompetensiya — bu shaxsning o'z kasbiy faoliyatini samarali va sifatli bajarish uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning yig'indisidir. Kasbiy kompetensiya faqat bilimlar bilan cheklanmaydi, balki amaliy ko'nikmalar, tajriba, professional axloq va muloqot qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Hozirgi zamon mehnat bozorida kasbiy kompetensiya mutaxassislarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun muhim omil hisoblanadi .

Kasbiy kompetensiyaning o'ziga xos asosiy tarkibiy qismlari mavjud bo'lib ular quyidagilar hisoblanadi:

- kasbiy bilimlar — sohaga doir bilimlar va nazariy tushunchalar.
- kasbiy ko'nikmalar — o'z kasbini bajarishda talab etiladigan amaliy ko'nikmalar.
- kasbiy malakalar — to'g'ri qarorlar qabul qilish, samarali ish usullarini topish kabi yuqori darajadagi ko'nikmalar.
- kasbiy tajriba — mutaxassisning real kasbiy muhitida o'rganilgan tajriba va amaliyot.

Kasbiy kompetensiya o'qitish va ta'lim jarayonida o'rganiladigan asosiy tushunchalar sifatida ko'rib chiqiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarni nafaqat bilimlar bilan ta'minlash, balki ularga kasbiy ko'nikmalarni o'rgatish ham zarur. Ta'lim dasturlari va o'quv rejalari kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

R.B.Rubin va S.Savignon o'z tadqiqotlarida kompetentsiyani bilim, tajriba, qadriyatlar, intilishlar asosida ta'lim olish jarayonida erishilgan umumiy layoqat sifatida ta'riflaydi. [4]

Kompetentsiya xususida filologiya va psixologiya fanlari doktori, akademik A.A.Leontev shunday yozadi: "Kompetentsiya tushunchasining paydo bo'lishi mutaxassis tayyorlash tarixi bilan bog'liq. Bunda kompetentsiya bilim, ko'nikma va umumiy malakalarni ish faoliyatiga safarbar qila olish layoqati sifatida tushuniladi". [5]

Integrativ yondashuv turli fanlarni yoki bilim sohalarini o'zaro bog'lash orqali dars jarayonida talabalarni yanada samarali o'qitish va ularga yanada kengroq bilim va ko'nikmalarni taqdim etish usuli ekanligini va ingliz tilida tabiiy fanlarni o'qitishda integrativ yondashuvni til va kasbiy bilimlarni birlashtirib, talabalarni ilmiy sohada ishlashga tayyorlay olish sifatida tasvirlab berdik.

1. Ingliz tili va tabiiy fanlarni o'zaro bog'lash Ingliz tili va mutaxassislik fanlarni birlashtirish orqali talaba kasbiy sohada ilmiy muloqot terminlarini o'rganadi. Aniq reja bo'yicha ta'lim berish, interaktiv metodlar Talaba ingliz tilida o'z kasbiga oid topshiriqlarni bajarishga tayyorlanadi

2. Interaktiv metodlar Talaba o'z bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi orqali duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishni o'rganadi. Mutaxassislik fanlar

mashg'ulotlari paytida muammolarni guruh bo'lgan holda jamoaviy hal qilish Talaba tanqidiy fikrlash va tez qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi

3. Kasbiy muloqot va kommunikatsiya Talaba ingliz tilida o'z kasbi yuzasidan muloqot qilishni o'rganadi. Muhokamalar, intervyu o'tkazish, kasbiy taqdimotlar Talaba ingliz tilida aniq va to'g'ri kasbiy muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitish, talabalarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali usul bo'lishi mumkin. Bu yondashuv talabalarga ilmiy va kasbiy bilimlarni birlashtirib, ularning fikrlash, yozish, va muloqot qilish ko'nikmalarini oshiradi. Talabalar ilmiy materiallarni ingliz tilida o'rganib, o'z kasbiy sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni egallaydilar. Shundan kelib chiqqan holda tabiiy fanlar oilasiga mansub kimyo fanidan mavzu tanlagan holda dars ishlanmasini ishlab chiqdik. Mavzu sifatida "Acids and Bases" (Kislotalar va Asoslar) tanlab olindi.

Darsning maqsadi talabalarga kislotalar va asoslar haqida ilmiy ma'lumotlarni ingliz tilida taqdim etish, kislotalar va asoslarning xususiyatlari, turli reaksiyalar va pH ning rolini tushuntirish hamdam talabalarga kimyo bo'yicha kasbiy atamalarda ingliz tilida so'zlashish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish kabi bo'ldi.

Darsning vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

1. Talabalarga kislotalar va asoslarning ta'riflari, xususiyatlari va misollarini taqdim etish.

2. Kislotalar va asoslar bilan bog'liq kimyoviy reaksiyalarni ingliz tilida tushuntirish.

3. Talabalar bilan amaliy mashqlar orqali kislotalar va asoslar haqida bilimlarni mustahkamlash.

4. pH o'lchovlari, kislota va asoslarning o'zaro ta'sirini tushuntirish.

Tadqiqotimiz mobaynida integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlar fakulteti talabalarining kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda qator samaradorliklarga erishish mumkin ekanligiga ishonch hosil qildik.

Ilmiy va kasbiy natijalar. Integrativ yondashuvni qo'llash talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali bo'ladi. Ingliz tilini o'rgatish orqali talabalar nafaqat ilmiy, balki umumiy kasbiy faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishadilar. Talabalar ingliz tilida ilmiy ma'lumotlarni o'rganish va ilmiy fikrlarni ifodalashda muvaffaqiyatga erishganlar

- Kasbiy o'sish. Talabalar ingliz tilini o'rganishi orqali o'z sohalarida kasbiy jihatdan o'sish imkoniyatlarini oshiradilar. Ingliz tilida o'qitish ularga nafaqat ilmiy faoliyat, balki kasbiy muvaffaqiyatga erishishda ham yordam beradi.

Tabiiy fanlar o'quv jarayonida faqatgina nazariy bilimlarni olishdan tashqari, amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirishi kerak. Rivojlantirish texnologiyalari o'quvchilarga ilmiy tafakkur, tahlil qilish, tadqiqot qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga imkon beradi. Bu texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot qilish, jamoada ishlash ko'nikmalari ham rivojlanadi. I.S.Kopylov (2011) rivojlantirish texnologiyalarini tabiiy fanlarni o'qitish jarayoniga qo'llashning muhimligini quyidagicha ta'kidlaydi: "Tabiiy fanlarni o'qitishda rivojlantirish texnologiyalari o'quvchilarning mustaqil ishlashini va ilmiy yondashuvni qo'llashini ta'minlaydi, bu esa ularga ilmiy yutuqlarni erishish imkonini yaratadi."

Tabiiy fanlar, jumladan kimyo, biologiya, fizika, matematika kabi sohalar va ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitish, talabalarining umumiy dunyoqarashi, ilmiy tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash nafaqat talabalarining bilimlarini mustahkamlash, balki ularni amaliy hayotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ingliz tili darslarida integrativ yondashuvni qo'llash tabiiy fanlar fakulteti talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni,

balki amaliy ko'nikmalarni ham o'zlashtirish imkonini beradi. Innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilar ilmiy tafakkurini rivojlantiradilar, analitik fikrlash, muloqot qilish va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Колшанский Г. В. Лингвокоммуникативные аспекты речевого общения // Иностранные языки в школе. – 1985. – № 1. – С. 10–15.
2. Беляев Б. В. Очерки по психологии обучения иностранным языкам. – М.: Просвещение, 1965. – 85 с.
3. Акишина А. А., Каган О. Е. Введение в психолингвистику. – М.: Русский язык, 1999. – С. 26–128.
4. Вербицкий А. А., Платонова Т. А. Формирование познавательной и профессиональной мотивации. – М., 1986. – 14 с.
5. Whorf B. L. The Relation of Habitual Thought and Behavior to Language // Language, Thought, and Reality. – Cambridge, MA: MIT Press, 1956.
6. Elodil – электронный образовательный ресурс по иностранным языкам. – Режим доступа: <http://www.elodil.com>
7. EduFle – платформа для изучения французского языка как иностранного. – Режим доступа: <http://www.edufle.net>
8. Franc-parler – образовательный портал для преподавателей французского языка. – Режим доступа: <http://www.francparler.info/accuei>